

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi: № 05

"22" dekabr 2023 yil



**”IQTISODIYOT” KAFEDRASINING ONLINE OLIMPIADA O'TKAZISH  
BO'YICHA NIZOMI**

Bilim sohalari:	<b>300000</b>	- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lif sohalari:	<b>310000</b>	- Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	<b>70310102</b>	- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Samarqand 2023

Magistratura talabalarining onlayn fan olimpiadasini o'tkazish bo'yicha tuzilgan ushbu dastur "Iqtisodiyot" kafedrasi tasarrufidagi magistratura mutaxassislik o'qitiladigan fanlar asosida ishlab chiqilgan.

Dastur Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasi, davlat ta'lif standartlari, malaka talablari hamda namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Olimpiadaning maqsadi: Universitet magistratura talabalarining o'quv, ilmiy va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, talabalarning qishgi ta'tilini samarali tashkil qilish, ularning ijodiy yoki kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Online olimpiada o'tkazish bo'yicha nizomi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida **70310102** – "Iqtisodiyot" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi uchun "Eng yaxshi iqtisodchi" shiori asosida online olimpiada o'tkazish bo'yicha tuzilgan

### Tuzuvchilar :

M.Sh.Komilova – SamDAQU "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri

F.S.Ganiyeva – SamDAQU "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Sobirov I.X. – SamDAQU "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Mukumova N.N. – SamDAQU "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

Mazkur Nizom dasturi "Iqtisodiyot" kafedrasining 2023 yil "12" 28 dagi №  
2-son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsija etilgan.

Kafedra mudiri

M.Sh.Komilova

Nizom dasturi "Iqtisodiyot va boshqaruv" fakulteti uslubiy kengashining yig'ilishi (2023 yil "12" 18 dagi № 4 -son) qarori bilan ma'qullangan va foydalanishga tavsija etilgan. Fakultet kengashining 2023 yil "20" 12 dagi №  
2 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

"Oliy ilm-fan maktabi" koordinatori

Sh.Mamarasulov

Kelishildi:

Talabalar bo'limi boshlig'i

F.Isrofilov

**“Xalqaro moliya” fanidan “Iqtisodiyot” kafedrasи bo‘yicha fan olimpiadasи  
o‘tkazish to‘g‘risida  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur nizom “Xalqaro moliya” fanidan kafedra bo‘yicha fan bo‘yicha online olimpiada o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Fan bo‘yicha online xalqaro moliya va uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi o‘rnini va jahon iqtisodiyotining globallashuvi hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida moliyaviy faoliyatning izchil amalga oshirishga qaratilgan.

1.3. Fan bo‘yicha online olimpiadani yuqori saviyada o‘tkazish uchun “Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti, “Iqtisodiyot” kafedrasи, va boshqalar jalb etiladi.

**II. Fan bo‘yicha online olimpiada maqsad va vazifalari**

2.1. “Xalqaro moliya” fan bo‘yicha online olimpiada o‘tkazishdan asosiy maqsadi iqtidorli yosh talabalarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash, yuksak bilimli, mustaqil fikrlaydigan, o‘zi tanlagan ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisligi bo‘yicha mukammal bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan muhandislik ishlamalarini hamda qurilish innovatsion texnologiyalarni yaratishga qodir, yosh ijodkorlarni tarbiyalashda yuksak madaniyat, erkin fikrlash tafakkurini yuksaltirish, innovatsion g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish, shu bilan birga “Ustoz-shogird” an’anasini keng miqyosda rivojlantirish orqali yosh ijodkorlarni bilimini kengaytirish hamda faoliyatini yanada takomillashtirish va rag‘batlantirishdan iborat.

**III. Fan bo‘yicha online olimpiada tashkil etish**

3.1. “Xalqaro moliya” fanidan kafedralalar yo‘nalishlararo fan bo‘yicha online olimpiada asosiy tashkilotchisi “Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti, “Iqtisodiyot” kafedrasи hisoblanadi.

3.2. Fan bo‘yicha online olimpiada Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitet rahbarligida amalga oshiriladi.

3.3. Fan bo‘yicha online olimpiada ishtirok etish istagini bildirgan talabalar “Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti dekanatiga yoki qo‘yidagi telefon raqamlarga murojaat qilishlari mumkin.



+99891-552-53-35



+998 93-335-28-88



+99877-067-90-09

3.4. Fan bo‘yicha online olimpiada jarayoni va natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetning rasmiy <https://samgasi.uz/> rasmiy veb saytida yoritib boriladi.

#### **IV. Ko‘rik-tanlovni o‘tkazish joyi va muddati**

4.1. Fan bo‘yicha online olimpiada 2023 yil 27 dekabr kunlari online shaklda o‘tkaziladi. g‘oliblar Samarqand davlat arxitektura-qurilish Universitetning rasmiy <https://samgasi.uz/> sayti orqali e’lon qilinadi va o‘rnatilgan tartibda rag‘batlantiriladi.

#### **V. Fan bo‘yicha online olimpiada ishtirokchilari**

5.1. Fan bo‘yicha online olimpiada **70310102** – “Iqtisodiyot” magistratura mutaxassisligi 1 - bosqich talabalari o‘rtasida bo‘lib o‘tadi.

#### **VI. Fan bo‘yicha online olimpiada nominatsiyalari**

- 6.1. Eng yaxshi bilimdon iqtisodchi;
- 6.2. Online test bilimdoni ;
- 6.3. Eng yaxshi muhandis iqtisodchi - (online tarzda qabul qilinadi);

#### **VII. Fan bo‘yicha online olimpiadaning baholash tartibi**

7.1. Tanlov hay’ati xolisonalik va shaffoflik asosida soha mutaxassislari va professor-o‘qituvchilardan har bir nominatsiya bo‘yicha alohida 5 nafar tarkibda tayinlanadi. Har bir nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar ilovada keltirilgan mos baholash mezonlari asosida aniqlanadi. Baholash fan bo‘yicha online olimpiada hay’ati tomonidan amalga oshiriladi.

#### **VIII. Fan bo‘yicha online olimpiada g‘oliblarini taqdirlash**

8.1. Fan bo‘yicha online olimpiada yakuniy bosqichida eng yaxshi bilimdon, online test bilimdoni, ishlanma va ijodiy ishlar nominatsiyalar bo‘yicha online olimpiada hay’ati a’zolari tomonidan g‘oliblar aniqlanadi.

8.2. Fan bo‘yicha online olimpiada g‘oliblari baholash natijasiga ko‘ra, birinchi o‘rin I darajali, ikkinchi o‘rin II darajali va uchinchi o‘rin III darajali Universitet rektorining diplomi hamda sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

8.3. Fan bo‘yicha online olimpiadaning boshqa ishtirokchilari faol ishtiroki uchun Universitet rektorining tashakkurnomasi bilan taqdirlanadi.

**Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ”  
Oliy ilm-fan maktabi” ”Iqtisodiyot” kafedrasi “Iqtisodchi” ko’rik-tanlovini  
o’tkazish nizomiga**

**Ilova**

**Ko’rik-tanlovning Hakamlar ha’yati tarkibi.**

**Rais**

1. Musurmanov R.M. – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi i.f.n. katta o’qituvchi

**A’zolar**

2. F.S.Ganiyeva – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
3. M.Sh.Komilova – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri
4. Xikmatov X.X – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi i.f.n. katta o’qituvchi
5. Mukumova N.N. – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi

**Ko’rik-tanlovning appilatsiya ha’yati tarkibi.**

1. Axunjanov A.M. – SamDAQU, Xodimlar va talabalar kasaba uyushmasi qo’mitasi raisi
2. Mamarasulov .Sh – SamDAQU “Oliy ilm-fan maktabi koordinatori”

**A’zolar**

3. Rahimov S.A. – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v.v.b
4. Mirzayev A.B – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
5. Abduraimov B.M. – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi
6. Rayimov M.A. – SamDAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi o’qituvchisi

**“Iqtisodiyot” fan bo‘yicha online olimpiada ishtirokchilarining baholash  
mezonlari quyidagi tarzda olib boriladi**

***“Eng yaxshi iqtisodchi”***

T/r	Baholash tartibi (holatlari)	Baholash ballari, maksimal	O’tkazilish vaqtি
1	Online test Hemis platformasida	100 ball	28.12.2023 soat 10:00 boshsanadi
	JAMI	100 ball	

***“Online test bilmdoni”***

*MS Teams platformasida 2 bosqichda test sinovlari olib boriladi*

T/r	Baholash tartibi (holatlari)	Baholash ballari, maksimal	O’tkazilish vaqtি
1	1-bosqich (50 savol) Hemis platformasida	100 ball	28.12.2023 soat 11:00 dan 12:00 gacha Online
	JAMI	100 ball	

Barcha nominatsiya bo‘yicha tanlovlар online, Hemis platformasida, ZOOM va TELEGRAM mesenjeri hamda MS Teams platformasida orqali olib boriladi

1. <https://us06web.zoom.us/j/87255101439?pwd=kOaSCMkq8zG8SKwNaJKIVuESyXMLjY.1>
2. <https://www.microsoft.com/ru-ru/microsoft-teams/log-in>
3. <https://t.me/yoshmuhandis2023>